

UDK: 334.01 (025)

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM XIZMATLAR BOZORINI
RIVOJLANISH JARAYONLARINI BAHOLASH

Muxtarov Shavkat Kadirovich,
BuxDU, Iqtisodiyot kafedrası
tayanch doktoranti (PhD)
E-mail: muxtarov.sh67@gmail.com

ANNOTASIYA. Ushbu maqolada ta'lim tadbirkorligini rivojlantirish, OTMLar ta'lim xizmatlarini yetkazib beruvchilarning raqobatbardosh shakllarini shakllantirish, raqobatbardosh hamkor tanlash, ta'lim xizmatlari sifatiga bozor bahosini berish asosida ta'lim bozori subyektlari o'rtasida moliyaviy, moddiy, kadrlar va intellektual resurslarning "oqib o'tishi" bilan bog'liq moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash omillari, ta'lim xizmatlarini taqdim etishni mintaqaviy va mahalliy darajadagi universitetlarga muntazam ravishda o'tkazish bo'yicha bozor dialektikasi, mintaqaning kadrlarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini optimal qondirish maqsadida ta'lim muassasalarini integratsiyalash, intellektual faoliyat va mutaxassislar tayyorlash bo'yicha mintaqalararo mehnat taqsimotida turli mulkchilik subyektlari ta'lim muassasalarining ishtirokini oshirish, mintaqaviy kasb-ta'lim tizimlari rivojlanishini optimallashtirishga qodir bo'lgan tashkiliy-funksional tarkiblarni shakllantirish, jumladan, ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, investitsiyalar jalb qilish masalalari tahlil qilingan va mavjud muammolarning ilmiy yechimlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmatlari, raqobatbardosh, xizmatlari sifati, subyektlar, oqib o'tishi, bozor dialektikasi, integratsiyalash, intellektual faoliyat, mehnat taqsimoti, optimallashtirish, investitsiya, ilmiy yechim.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассмотрены факторы укрепления финансовой устойчивости, связанные с "перетоком" финансовых, материальных, кадровых и интеллектуальных ресурсов между субъектами образовательного рынка на основе развития образовательного предпринимательства, формирования конкурентоспособных форм поставщиков образовательных услуг ВУЗы, выбор конкурентоспособного партнера, рыночная оценка качества образовательных услуг, диалектика

рынка образования по систематической передаче услуг вузы регионального и местного уровня, интеграция образовательных учреждений с целью оптимального удовлетворения текущих и перспективных потребностей регион для кадров, усиление участия образовательных учреждений разных форм собственности в межрегиональном разделении труда по интеллектуальной деятельности и подготовке специалистов, региональному профессиональному обучению формирование организационно-функциональных структур, способных оптимизировать системы развития, в том числе финансирования образовательных учреждений, привлекающих инвестиции, проанализированы и представлены научные решения существующих проблем.

Ключевые слова: образовательные услуги, конкурентоспособность, качество услуги, субъекты, поток, рыночная диалектика, интеграция, интеллектуальная деятельность, разделение труда, оптимизация, инвестиции, научное решение.

ABSTRACT. *This article examines the factors of strengthening financial stability associated with the "flow" of financial, material, human and intellectual resources between the subjects of the educational market based on the development of educational entrepreneurship, the formation of competitive forms of providers of educational services universities, the choice of a competitive partner, market assessment of the quality of educational services, the dialectic of the education market for the systematic transfer of services universities of regional and local level, integration of educational institutions in order to optimally meet the current and future needs of the region for personnel, strengthening the participation of educational institutions of different forms of ownership in the interregional division of labor for intellectual activity and training of specialists, regional vocational training, the formation of organizational and functional structures capable of optimizing development systems, including financing of educational institutions attracting investment, analyzed and presented scientific solutions to existing problems.*

Key words. *educational services, competitiveness, quality of services, subjects, flow, market dialectics, integration, intellectual activity, division of labor, optimization, investment, scientific solution.*

KIRISH

2022-2026-yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" nomli IV-bo'limining 46-maqsadida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini

joriy etish, 2026-yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish, davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish, davlat oliy ta'lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash vazifalari belgilab berilgan[3].

"2022-2026-yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" bo'limida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, 2022-yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish kabi vazifalar belgilab berilgan [2].

"Pullik xizmat" tushunchasining mohiyatini ta'riflash ilmiy doiralarda katta tortishuvlarga sababchi bo'ladi. Bunday hol shu bilan izohlanadiki, ushbu tushuncha uning uchun pullik mahsulot yoki xizmatni o'zining shaxsiy daromadi hisobiga sotib olishni anglatadigan iste'molchi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Biroq, agar bozor mahsuloti davlat, homiy va hokazolar hisobiga sotib olingan bo'lsa, u bepul olingan mahsulot sifatida qabul qilinadi [4]. Agar uning mehnatiga mos keluvchi pul ekvivalenti taqdim etilgan bo'lsa, ishlab chiqaruvchi uchun barcha mehnat natijalari pullik hisoblanadi. Bunda pul qaysi manbalardan – davlatdan, jamiyatdan, alohida mehnat jamoalari yoki shaxslardan kelib tushishining farqi yo'q.

Tadqiqotda "pullik xizmat" toifasining mohiyatiga quyidagicha ta'rif taklif etiladi: iste'molchi uchun foyda keltiradigan harakat mahsuloti uchun uni ishlab chiqaruvchiga mos keluvchi pul yoki boshqa moliyaviy (qiymatga ega bo'lgan) ekvivalent berilganda xizmat pullik xizmatga aylanadi. Ishda uning asosiy xususiyati xizmatlarni ishlab chiqaruvchi xodimlar iste'molchilar bilan doimiy muloqotdaligi, shu sababli ma'lum bir vakolatlarga egaligi, lozim xizmatlar sohasida boshqaruv jarayonlarini tashkil qilish jarayonidagi o'ziga xos jihatlar, xizmatlarning iste'mol tavsiflari ular uchun ishlab chiqaruvchiga pul to'lash zarurati bilan belgilanadi. Busiz ishlab chiqaruvchi bozor muhiti sharoitlarida faoliyat yurita olmaydi. Bundan tashqari, muloqot paytida ular xizmatlarni o'ziga xos mahsulot turi sifatida bozor muhitiga ilgari suradigan, shu tufayli iste'molchida xizmatlar ishlab chiqaruvchisi haqida ishonchli va yaxshi taassurot qoldiradigan hamkor sifatida har tomonlama ijobiy tasavvur uyg'otadigan shaxsiy va individual harakatlarni amalga oshirishlari lozim [5].

Shunday qilib, xizmatlar sohasida boshqaruv sifat jihatidan yangi xususiyatga – o'zaro munosabatlar marketingiga o'tadi, boshqaruv tizimining o'zi esa «menejment-marketing» tizimiga aylanadi, bu yerda personalni rag'batlantirish bo'yicha harakatlar bir vaqtning o'zida xizmatlar sohasi marketingi va menejmentini rivojlantirish bo'yicha harakatlar tusini oladi, boshqaruvdan samaraga esa, ularning ijobiy natijalari, pullik xizmatlar bozorida

faoliyat yurituvchi muayyan korxonalar raqobatbardoshligi va sotuvning o'sishi, barqaror brend yaratish hisobiga erishiladi [6].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotimiz davomida olimlarning oliy ta'lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi kerakligi, tadbirkorlik subyekti sifatida boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishlari zarurligini ta'kidlashlariga e'tiborimizni qaratdik.

J.Huisman and A.Pausits fikriga ko'ra, oliy ta'lim islohotlarining barqarorligi o'zini faol va tadbirkorlik bilan olib borishi kerak bo'lgan oliy ta'lim boshqaruvining professional darajasiga bevosita bog'liq bo'lishi kerak [7].

O.S.Qahhorovning fikricha, "OTMga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra ijobiy va salbiy omillarni ajratish mumkin. Ijobiy omillar o'quv muassasining boshqaruv samaradorligining ortishiga xizmat qilsa, salbiy omillar samaradorlikning ijobiy o'zgarishiga to'sqinlik qiladi. Ular istalgan ta'lim muassasining boshqaruv samaradorligiga bir xilda ta'sir qiladi. Bunday universal omillar qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

qo'yilgan maqsadlarning sifati;

maqsadlarni real amalga oshirish imkoniyati, ya'ni, ularning qo'yilgan maqsadga erishish vositalari bilan muvofiq kelishi, joriy holatni to'g'ri baholash, muassasa rahbari va xodimlarini qo'yilgan maqsadlar yo'lida motivatsiyalash, o'quv muassasasi rahbarining salohiyati va shaxsiy sifatleri, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ajratilgan resurslarning miqdori va sifati, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat va jamiyat hamda kollegial boshqaruv organlarining ishtiroki" [8].

H.Umarovning fikriga ko'ra, boshqaruv alohida faoliyat yo'nalishi bo'lib, uning missiyasi tashkilotning tashqi muhiti tomondan belgilab berilgan maqsad va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki imkoniyatlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashdan iborat. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, H.Umarova quyidagi xulosalarga keladi, tashqi muhit tomonidan belgilangan maqsad va vazifalar ijro uchun birinchi navbatdagi masala ekanligi, tashqi muhit talablariga mos keluvchi ichki imkoniyatlarni rivojlantirish mexanizmlari va vositalarini transformatsiyalash zarurligi, tashqi muhit talablarini amalga oshirish va transformatsiyalash jarayonlarining muvaffaqiyatini ta'minlovchi tashkiliy tuzilmani shakllantirish lozimligi, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga mos ravishda boshqaruv obyektiga ta'sir o'tkazish usullarini to'xtovsiz yangilab borish hamda ichki va tashqi moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun faoliyatning yangi yo'nalishlarini joriy etish zarurligi bilan izohlanishi mumkin [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning oliy ta'lim muassasalarida xizmatlar bozorini rivojlanish jarayonlarini baholashga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini ifodalovchi ma'lumotlar tahlilida statistik guruhlash, silishtirma tahlil, tanlanma kuzatuv, adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, turli umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim xizmatlari mikrotizimi tashqi xizmatlarni ham, ichki jarayonlarni ham boshqarish metodologiyasiga yo'naltiriladi. Byudjet xizmatlarining aksariyati, tashqi iste'molchilarga yo'naltirilganligi qaramay, ularning idrokini hisobga olmasdan va tahlil qilmasdan amalga oshiriladi (misol - umumiy o'rta ta'lim). Bundan tashqari, ichki iste'molchilarga ko'rsatiladigan juda kam miqdordagi xizmatlar mavjud (o'z mablag'lari hisobidan va ta'lim muassasasining o'z mutaxassislaridan foydalanish asosida amalga oshiriladigan o'qituvchilarning malakasini oshirish kurslari)[1]. Lekin shunga qaramay, mikrotizimlar (muassasalar) doirasida oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimlari asta-sekinlik bilan boshqaruvning bozor usullariga o'tmoqdalar. Ular o'z faoliyatlarida mijozlarning xizmat sifati, iste'molchilarning umumiy talablari va boshqalar darajasi bilan qoniqish tahlilini tahlil qilishdan foydalanmoqdalar.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi bakalavrlarining ishga joylashganlari va magistraturaga o'qishga kirganlari ulushi 75,0 %ni, jumladan Buxoro va Navoiy viloyatlarida mos ravishda 85,1 % va 66,7 %ni tashkil qilgan.

Bu oliy ta'limda xizmatlarning ma'lum darajada to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi natijasida xarajatlar samarasiz bo'layotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, 2010-yildan beri talabalar tarkibi (kontingenti) va mutaxassislarning bitirishi dinamikasi ko'rsatkichlari sekin o'sishda deyarli bir xil tendensiyani namoyish etmoqda (ya'ni, 2015-yil 66,3 ming, 2016-yil 64,1 ming, 2017-yil 67,4 ming va 2020-yil 70,8 ming nafar)yoki 2020-2021 yildan buyon OTMlarga kirgan talabalar uchun ko'rsatkichlar dinamikasida o'zgarishlar sezilyapti (ya'ni, 2020-yil 174,9 ming, 2021-yil 235,9 ming kishi, 2022-yil 275,0 ming kishi), ya'ni kontingent va ishlab chiqarishning o'sish kutilmoqda.

Tashqi va ichki ta'lim xizmatlarini boshqarishda asosiy muammo boshqaruvning turli darajalarida ushbu faoliyat bo'yicha servisning tarkibiy qismini rivojlantirish hisoblanadi. Bu jarayonni amalga oshirish metodologiyasi universal bozor yondashuvi sifatida nazorat tizimidan foydalanishga va ta'lim xizmatlarini kompleksli boshqarishga asoslanishi lozim [10].

Mahalliyashtirishning har bir darajasida nazorat (kontrolling) o'ziga xos muvozanatlangan ko'rsatkichlar, rejalashtirish usullari va shakllari, audit va faoliyat nazoratini o'z ichiga oladi.

OTM ta'lim xizmatlari globallashtirish bozori tendensiyasining xarakteri va o'ziga xos xususiyatlari quyidagi omillar ta'siri bilan belgilanadi:

birinchidan, jahon iqtisodiy munosabatlari tezligining o'sib borishi, ikkinchidan, raqobatning kuchayishi va, oqibatda, yangi o'yinchilar (Argentina, Braziliya, Xitoy, Hindiston va b.) kirib kelishi bilan bog'liq dunyo rivojlanishidagi o'sib borayotgan noaniqlik; uchinchidan, dunyoning notekis rivojlanishi va davlatlararo iqtisodiy makonda ierarxik globallashtirishning kuchayishi; to'rtinchidan, jahon iqtisodiy munosabatlari markazining Osiyo va Tinch okeani mamlakatlariga tomon siljishi, bu ta'lim oqimlarining yo'nalishini o'zgartiradi va shunga mos ravishda turli ittifoqlar va bloklarning xalqaro mehnat taqsimotida raqobat mavqeini tanlashiga ta'sir qiladi [11].


Muallif tomonidan iqtisodiy tuzilmalar turli modellarini qiyosiy parametrash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi, iqtisodiy tuzilmalarning "amerikacha" va "yevropacha" modellari institusional bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar keltirildi, iqtisodiy tuzilmalarning «aralash» modeli institusional tahlili amalga oshirildi, ta'lim xizmatlari globallashtirish bozorining yangi integrasion o'yinchilari sifatida strategik ittifoqlar ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda AQSh, Fransiya, Italiya, Avstraliya, Rossiyadagi "malakali mutaxassis" va "professional menejer" modellari o'rtasidagi tarkibiy yaqinlik darajasi va chegaralarini aniqlashga imkon bergan har bir model' doirasida oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'limni shakllantirish omillari va xususiyatlari ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda 2021-yilda xizmatlar sohasida savdo xizmatlari eng asosiy ulushga ega bo'lsa, quyi ulushlardan biri ta'lim sohasiga to'g'ri keladi (1-rasm).

Xizmatlar sohasida ta'limning ulushini oshirish boshqa xizmatlarga ham to'g'ridan to'g'ri ijobiy ta'sir qiladi. Xizmatlar sohasida ta'lim xizmatlari 4,2 % ni tashkil qilgan bo'lib, 2021-yildagi hajmi 11 772,6 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan 128,7 %ni tashkil qilgan [12].

Bozor tovari sifatida xizmatlar har qanday jamiyat faoliyatining ajralmas elementi hisoblanadi. Ular moddiy (buyum holdagi) ishlab chiqarishdan his qilib bo'lmaslik, iste'molchidan ajratib bo'lmaslik, ishlab chiqarish va iste'molda uzluksizlik, hajm va sifatni saqlab qolish mumkin emasligi kabi xususiyatlar bilan farqlanadi. Biroq ilmiy adabiyotlarda xizmat deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarning umumiy bir ta'rifi hanuzgacha mavjud emas. Muallif tomonidan "xizmat" toifasining mohiyati o'z iste'mol qiymati va qiymatiga ega bo'lgan, iste'molchi va jamiyat uchun ma'lum bir foyda keltiradigan, faoliyati mahsul ko'rinishida iste'molchi uchun foydali bo'lgan harakat sifatidagi varianti taqdim etilgan.



1-rasm. Xizmatlar sohasining tarkibi. 2021-yil holatiga, % da ¹

Ta'kidlash o'rinliki, ta'lim xizmatlarning alohida bir turi sifatida o'ziga xos jihatlari ega. U shunda namoyon bo'ladiki, to'plangan axborotlar hajmi, iste'molchi xohishidan qat'iy nazar, sondan sifatga o'tadigan hamda yangi bilimlar va dunyoqarashlar shakllanishi, dunyoni boshqacha qabul qilish va tizim uning mavjudligida ishtirok etish uchun imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan axborot xizmatlari to'plamini taqdim etadi. Tarixan ta'lim o'zining taraqqiyparvarligini hamda butun jamiyat va o'z iste'molchilari uchun foydaliligini ifodalaydi. Bu esa, ta'lim xizmatlarining turli ijtimoiy xizmatlar orasida eng ustuvor xizmatlardan biri va samarali kelajagini shakllantirayotgan har qanday davlat uchun istiqbolli investitsion resurs ekanligini belgilab beradi (1-jadval).

Ta'lim xizmatlari muallif tomonidan vazifalar qo'yish va hal qilishning uch darajasida ko'rib chiqildi: davlat makrotizimi doirasida, hudud mezotizimi doirasida, ta'lim tashkilotining mikrotizimi doirasida. OTMlar ta'lim xizmatlarini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqish ichki va tashqi ta'lim xizmatlarini boshqarishning turli usullaridan foydalanilishi hamda tadqiq etilayotgan tizimlarda ichki va tashqi xizmatlar nisbati turlicha ekanligi bilan asoslanadi [9].

Ta'lim xizmatlari makrotizimlariga global ta'lim tizimlari (masalan, xalqaro ta'lim xizmatlari) va milliy ta'lim tizimlari kiradi. Ta'lim xizmatlari mezotizimlariga mintaqaviy (O'zbekiston Respublikasi subyektlari doirasida) va hududiy tuzilmalar (ta'lim boshqarmalari) doirasidagi ta'lim tizimlaridir.

¹ www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mikrotizimlar qatoriga ta'lim tashkilotlari kiradi.

Ushbu ajratilgan darajalarning har biriga nisbatan ichki va tashqi xizmatlar nisbati ko'rib chiqilgan.

O'z faoliyatini bir qator davlatlarda amalga oshiradigan ta'lim xizmatlari global makrotizimlari tashqi xizmatlar taqdim etishga qaratiladi. Ularni boshqarish bozor tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Ular bir-biri bilan, milliy ta'lim tizimlari va ularning qismlari bilan raqobatda ishtirok etadi.

1-jadval

Xizmatlar bozorining qiyosiy tavsifi ²

| Oddiy tovar va xizmatlar bozori | OTMlar ta'lim xizmatlari bozori |
|---|---|
| Davlatning aralashuvi chegaralangan | Davlat xizmatlar sifati ustidan nazoratni amalga oshirishi kerak |
| Firmalar bozor muhiti rivojlanishining istalgan sharoitlarida o'z daromadini maksimalashtirishga intiladi | Ta'lim korxonalari egalari maksimal foyda olish imkoniyatlari qonun asosida chegaralangan |
| Mahsulotlarning bir tipdaligi va bir xilligi | Xizmatlarning bitta ixtisoslik doirasida ham har xilligi |
| Iste'molchilarning sifat va qo'llash usulidan yaxshi xabardor ekanligi | Iste'molchilarning xizmatlar sifati va kelajakda qo'llanishidan yaxshi xabardor emasligi |
| Aholining to'lov layoqati darajasidan kelib chiqib, pul to'lashi | Xizmatlarga ehtiyoj doim ham anglab yetilmaydi, ba'zida daromad darajasi bilan bog'liq bo'lmaydi. Daromad pasayishi bilan talab ham pasayishi mumkin. Davlat uchun ehtiyoj alohida shaxs uchun ehtiyojdan muhimroq |
| Demografik xususiyatlar faqat alohida bozor segmentlariga ta'sir etadi | Talab mamlakatdagi demografik vaziyatga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi |

Ta'lim xizmatlari milliy makrotizimlari o'z salohiyatini milliy iqtisodiyot doirasida amalga oshiradi. Ta'lim xizmatlarini boshqarish ichki iste'molchi – aholiga taqdim etiladigan ichki davlat xizmatlari sifatida amalga oshiriladi. Xarajatlarni byudjetlashtirish, hajmiy ko'rsatkichlarni rejalashtirish, ularning bajarilishi nazorat qilib boriladi. Ta'lim sohasida davlat siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlarini ijroiya hukumati organlari qarorlari va deputatlarning qonun chiqarish faoliyati asosida belgilanadi [14].

Shunday qilib, milliy ta'lim makrotizimi darajasida boshqaruv xizmatlar ko'rsatish jarayoni bilan emas, balki ta'lim jarayoni, ya'ni bilimlar uzatish texnologiyasi bilan amalga oshiriladi. Bevosita subyekt munosabatlarida xizmatlar

²Muallif ishlanmasi.

portfelini shakllantirish va ularning tavsifi, tarkibi, qo'shimcha xizmatlar hajmi, servis muhitini shakllantirish byudjet sohasida yaqin paytlargacha bevosita iste'molchi fikrini hisobga olmasdan amalga oshirib kelingan [15]. Ta'lim tizimini byudjetdan moliyalashtirishning ijtimoiy ahamiyati juda katta bo'lib, bunga shubha ham yo'q. Lekin shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimini shakllantirish uchun xilma-xil ehtiyojlarini va bevosita ta'lim sohasi mijozlarining ta'lim xizmatlari tizimiga nisbatan yuzasga kelgan tanqidiy munosabatini hisobga olish kerak. Buning uchun nafaqat davlat amaldorlari tomonidan nazorat tadbirlarini amalga oshirish, balki iste'molchilar ta'lim muassasalarining turli xizmatlar ko'rsatishini majburiy baholashi bilan davlat ta'lim tizimini boshqarish usuli sifatida tizimli ravishda nazoratdan ham foydalanish zarur.

Tizimga nisbatan tashqi omil sifatida ta'lim xizmatlarini boshqarish davlat ta'limi makrotizimining boshqa mamlakatlar ta'lim tizimlari bilan raqobat munosabatlariga kirishishida amalga oshiriladi.

Ta'lim xizmatlari mezotizimlari, bir tomondan, ta'lim xizmatlari milliy makrotizimining quyi tizimlari hisoblanadi, ikkinchi tomondan, ularning faoliyati mos keluvchi hududlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan nisbatan mustaqil ta'lim klasterlarini tashkil etadi. Ta'lim xizmatlari mezotizimlari ichki iste'molchilarga ham, tashqi iste'molchilarga ham yo'naltirilgan boshqaruv usullaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Milliy ta'lim makrotizimining tarkibiy qismi – hududlar mezotizimlari yuzaga kelgan ta'lim xizmatlarini boshqarish uslubiyatidan ichki jarayonlar sifatida, jumladan, yuqorida sanab o'tilgan vositalardan foydalanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ta'lim xizmatlarining mezotizimlari, shuningdek bir-birlari bilan raqobatli munosabatlarga kirishadigan ta'lim mezotizimlari xizmatlarni boshqarishning bozor usullaridan foydalanishga va iste'molchilarni ushbu mezotizimdan tashqarida bo'lgan mijozlar, deb bilishga majbur bo'lmoqdalar.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari O'zbekiston bozorining o'ziga xos xususiyatlari va uning g'arb bozoridan farqi aniqlandi. Bu tashkil etishning dastlabki davridan endigina o'tganligi va uning iqtisodiy sohasi g'arbdagi analoglarga o'xshamasligi sababli umuman yetuk emasligi bilan tavsiflanadi.

Buni quyidagi tahlil ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari va ulardagi talabalar sonida ijobiy tomonga o'zgarishlar ro'y bergan. Tahlil qilinayotgan 2010/2011-yildagiga nisbatan 2022/2023-yillarda respublika bo'yicha umumiy oliy ta'lim muassasalari soni 3,1 barobarga (129ta ta'lim muassasasiga), Buxoro viloyatida 3,7 baravarga (8 ta ta'lim muassasasiga) oshgan bo'lsa, Navoiy viloyatida 2,0 baravarga (2 ta ta'lim muassasasiga) o'sgan. Ta'lim muassasalari soniga mos ravishda talabalar sonida ham o'zgarishlar bo'lgan. Ya'ni, respublika bo'yicha tahlil qilinayotgan ushbu yillarda oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar soni 3,8 baravarga 9 (767,6 ming nafarga), shuningdek, Buxoro viloyatida 4,0 baravarga (43,1 ming nafarga),

Navoiy viloyatida esa 3,1 baravarga (20,6 ming nafarga) oshgan. Navoiy viloyatida ta'lim muassasalari sonida o'zgarish kutilmagan bo'lsa-da, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar sonida ijobiy tomonga o'zgarish bo'lgan [16].

Rivojlanayotgan tizim sifatida oliy ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari bozori barcha darajalardagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladigan qator tamoyillarga asosan tashkil qilinadi. Fikrimizga ko'ra, bunday tamoyillar qatorigaxo'jalik mustaqilligi yoki moliyaviy mustaqillikni, OTMlar o'zini-o'zi boshqarishini, ta'lim xizmatlari bozori ierarxiyasini, xizmatlar ochiqligi va pulliligini kiritish mumkin.

2-jadval

**O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari
(o'quv yili boshiga)⁴**

| | 2010/ 2011 | 2012/ 2013 | 2013/ 2014 | 2015/ 2016 | 2016/ 2017 | 2018/ 2019 | 2019/ 2020 | 2010/ 2022 | 2022/ 2023 |
|-------------------------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| O'zbekiston | | | | | | | | | |
| OTM soni | 62 | 64 | 66 | 69 | 70 | 98* | 119 | 154 | 191 |
| Talabalar soni, ming nafar | 274,5 | 258,3 | 259,3 | 264,3 | 268,3 | 360,2 | 441,0 | 808,4 | 1042,1 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Kunduzgi bo'limda | 268,7 | 258 | 258,9 | 263,9 | 267,9 | 313,8 | 360,1 | 553,9 | 622,6 |
| Sirtqi bo'limda | 5,8 | 0,3 | 0,4 | 0,4 | 0,4 | 46,4 | 73,6 | 228 | 381,8 |
| Buxoro | | | | | | | | | |
| OTM soni | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 5 | 5 | 6 | 11 |
| Talabalar soni, ming nafar | 14,4 | 13,7 | 13,8 | 13,7 | 14 | 20,9 | 28,6 | 43,9 | 57,5 |
| Navoiy | | | | | | | | | |
| OTM soni | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 4 |
| Talabalar soni, ming nafar | 9,7 | 8,4 | 8,1 | 8,4 | 8,8 | 11,6 | 13,4 | 21,7 | 30,3 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Kunduzgi bo'limda | 9,5 | 8,4 | 8,1 | 8,4 | 8,8 | 10,1 | 10,9 | 13,8 | 15,3 |
| Sirtqi bo'limda | 0,2 | - | - | - | - | 1,5 | 2,7 | 7,3 | 14,1 |

**Hududiy filiallarni qo'shgan holda.*

Oliy ta'lim muassasalari xizmatlar bozori tavsifnomalari tahlili uning bir qator muhim xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Bu xususiyatlar quyidagilar: bir tomondan, sifat normativ kafolatlariga rioya qilgan holda ta'lim xizmatlari yetazib beruvchi sifatida davlatning faol roli, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotning strategik ahamiyatga molik boshqa muhim sektorlari (harbiy-sanoat majmuyi, atom energetikasi va b.) davlat buyurtmasini amalga oshirish va byudjet sohasini yuqori malakali personal bilan ta'minlash borasida

⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

iste'molchi sifatida; tahsil oluvchi tomonidan (tahsil olish maqsadlari bilan belgilanadi) va potensial ish beruvchi tomonidan (xodimdan foydalanishning ishlab chiqarish funksiyalari va maqsadlari bilan belgilanadi) ta'lim xizmatlariga talabning ikki yoqlama xarakteri; ta'lim xizmatlari va professional xizmatlar bozorlarining ko'p pog'onali xarakteri (mintaqaviy, mintaqalararo, umumdavlat va xalqaro).

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari sohasining rivojlanish dinamikasi va tarkibi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: 2010/2011–2022/2023-yillarida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi muassasalar soni 3,0 barobarga, ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar soni 3,8 barobarga, jumladan kunduzgi bo'limlarda 2,3 barobarga, sirtqi bo'limlarda 65,8 barobarga o'sgan. Mintaqalardagi OTMlari va ularda o'qiydigan talabalar sonida ham o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Masalan, tahlil qilinayotgan yillarda Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi ta'lim muassasalari soni mos ravishda 3,7 va 2,0 barobarga o'zgargan bo'lsa, ularda talabalar umumiy soni hamdaku kunduzgiva sirtqi bo'limlaridagi talabalar soni mos ravishda 2,6 barobar va 45,0 barobar; 1,6 barobar va 70,5 barobarga oshgan Pullik asosda o'qiydigan talabalar soni (ta'lim xizmatlarining bozor sektori) buyillar mobaynida 3,5 baravar o'sdi. 2022/2023 yillarda pullik asosda o'qiydigan talabalar ulushi jami talabalar sonining 77,9%ini, davlat grantlari asosida o'qiydiganlar esa 22,1 %ini tashkil qilgan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida o'qiydigan talabalarning yarmidan ko'pi bozor qatnashchilari hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim faoliyati sifatini ta'minlash darajasi va miqdoriy o'sish dinamik sur'atlar bilan rivojlanayotgan mehnat bozorining zamonaviy talablariga doim ham javob bermayapti.

Ta'lim sohalari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalarining taqsimlanishi tahliliko'rsatishicha, 2010/2011 va 2022/2023 o'quv yillarida respublika bo'yicha talabalar soni yuqorida qayd etilganidek, 3,8 baravarga oshgan bo'lsa-da, bu boradagi sohalar bo'yicha turli o'zgarishlarni ro'y bergan. Masalan, tahlil qilinayotgan yillarda gumanitar, ishlab chiqarish va texnik, qishloq va suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot va xizmatlar sohalari bo'yicha talabalar soni mos ravishda 3,0, 4,4, 3,1, 1,6, 2,6 va 3,1 baravarga o'sgan [17].

Mintaqalar bo'yicha ushbu yillardagi tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi OTM o'qiydigan talabalar soni, ularning kunduzgi va sirtqi bo'limlardagi sonida turli xil o'zgarishlar ro'y bergan. O'zbekiston miqyosida olganda jami talabalar soni 1042 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, ular orasida gumanitar soha talabalari (425,8 ming kishi) eng yuqori ulushga ega bo'lgan bo'lib, keyingi o'rinlarni ishlab chiqarish va texnik soha (217,2 ming kishi) va ijtimoiy soha, iqtisod-huquq (194,0 ming kishi) talabalari egallagan (3-jadval).

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ta’lim sohalari bo’yicha taqsimlanishi
(o’quv yili boshiga, ming kishi)⁵

| Ko’rsatkichlar | 2017/ 2018 | 2018/ 2019 | 2019 /2020 | 2020/ 2021 | 2021/ 2022 | 2022/ 2023 |
|--|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| O‘zbekiston | | | | | | |
| Talabalar soni | 297,7 | 360,2 | 441,0 | 571,5 | 808,4 | 1042,1 |
| Sh.J. soha bo’yicha | | | | | | |
| Gumanitar soha | 124 | 166,7 | 2013,2 | 268,6 | 379,4 | 425,8 |
| ijtimoiy soha, iqtisod-huquq | 27,4 | 32,5 | 44,2 | 71,4 | 122,2 | 194,0 |
| ishlab chiqarish va texnik soha | 58,5 | 97,8 | 108,5 | 134,3 | 180,5 | 217,2 |
| qishloq va suv xo’jaligi | 23,5 | 24,4 | 26,6 | 30,7 | 38,6 | 48,1 |
| sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot | 18,9 | 24,4 | 29,4 | 40,3 | 50,5 | 62,1 |
| xizmatlar sohasi | 11,7 | 14,4 | 19,1 | 26,2 | 37,2 | 47,6 |
| Buxoro | | | | | | |
| Talabalar soni | 15,9 | 20,9 | 24,7 | 35,1 | 43,9 | 58,9 |
| Sh.J. soha bo’yicha | | | | | | |
| Gumanitar soha | 6,9 | 10,7 | 12,5 | 16,4 | 19,3 | 26,7 |
| ijtimoiy soha, iqtisod-huquq | 0,6 | 0,6 | 0,7 | 201 | 3,2 | 5,3 |
| ishlab chiqarish va texnik soha | 5,2 | 5,6 | 5,8 | 8,6 | 9,9 | 11,6 |
| qishloq va suv xo’jaligi | 1 | 1,2 | 1,6 | 2,4 | 2,8 | 4,8 |
| sog’liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot | 1,7 | 2,2 | 2,8 | 3,7 | 4,9 | 7,9 |
| xizmatlar sohasi | 0,5 | 0,6 | 0,8 | 1,4 | 1,8 | 2,6 |

Buxoro viloyati miqyosida talabalar soni qariyb 3,7 martaga ortgan bo’lib, sohalar keisimida olgandaijtimoiy soha, iqtisod-huquq talabalari soni 2010-yilga nisbatan olganda eng yuqori darajada o’sgan bo’lsa(qariyb 8 martaga ko’paygan), qishloq va suv xo’jaligi (mos ravishda ming nafardan 4,8 ming nafarga) va xizmatlar sohasidagi (500 nafardan 2,6 ming nafarga) talabalar soni qariyb 4 martadan ko’proq darajada ortgan.

Demografik ko’rsatkichlarni ijtimoiy-iqtisodiy ko’rsatkichlar bilan birgalikda tahlil qilish va baholash shuni ko’rsatdiki, O‘zbekiston o‘z hayotidaiqtisodiy rivojlanishning yuqori sur’atlari bilan ajralib turadigan yangi bosqichga kirdi, ammo shu bilan birga mamlakatda demografik ko’rsatkichlar yomonlasha boshladi, bu kelajakda davlatning mehnat salohiyati bilan bog’liq katta muammolarga olib kelishi mumkin.Buni ta’lim darajasi va sifatini oshirish, mamlakatimiz uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bilan qisman bartaraf etish mumkin. Bu esa, milliy ta’lim xizmatlari sifatini jadal rivojlantirishni va O‘zbekiston Respublikasida pullik ta’lim xizmatlari ko’rsatuvchi ta’lim muassasalarini yuqori sifatli boshqarishni ta’minlash uchun

⁵ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

yechim topishni talab qiladi [7]. Mamlakatda ta'limning uzluksizligiga va barcha shakllardagi ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari sohasida innovasiyalar yaratishga alohida e'tibor berilishi lozim.

Oliy ta'lim tizimining ko'p pog'onali tarkibiga o'tish O'zbekiston Respublikasida bosqichma-bosqich mutaxassislar tayyorlash uchun asos, ularning diplomlari kelajakda konvertasiya qilinishi va milliy oliy ta'lim tizimining jahon ta'lim tizimiga kirishi uchun sharoitlar yaratdi. Bu uning turli bosqichlaridagi ta'lim xizmatlari ulushini va mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan foizda ta'limga sarflangan xarajatlar dinamikasini tahlil qilish imkonini berdi. Tegishli hujjatlarda qayd etilishicha, davlat tomonidan ta'limga sarflanadigan xarajatlarning pasayishi mamlakatda pullik ta'lim xizmatlari rivojlanishi va xususiy mulkchilik shaklidagi tijorat ta'lim muassasalari soni ko'payishi bilan barobar ro'y berdi.

O'rganilgan oliy ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlarini boshqarish mexanizmini tahlil qilish va baholash ushbu sohada mavjud muammolar SWOT tahlilining mualliflik variantini yaratishga imkon berdi (4-jadval).

4-jadval

**Buxoro va Navoiy viloyatlarida ta'lim xizmatlari bozori holatining
SWOT-tahlili⁶**

| KUCHLI TOMONLAR | KUCHSIZ TOMONLAR |
|---|---|
| 1. Institusional tarkiblar, ta'lim dasturlari va shakllari diversifikatsiya qilinadi | 1. Qonunchilik va me'yoriy baza oxirigacha ishlab chiqilmagan |
| 2. Nodavlat ta'lim sektori va pullik ta'lim xizmatlari bozorining jadal rivojlanishi ro'y beradi | 2. Daromad ortidan quvish hisobiga xususiy ta'lim muassasalari ta'lim sifatiga bo'lgan talabni keskin pasaytirib yuboradi |
| 3. Ta'lim xizmatlari sof raqobat bozori sifatida shakllanadi | 3. Mehnatga haq to'lash darajasining pastligi OTMlardan professor-o'qituvchilar ketib qolishiga sabab bo'ladi, ularning yetishmasligi butun mamlakat bo'ylab seziladi |
| 4. Oliy ta'limni demokratlashtirish tizimi va uni boshqarishni nomarkazlashtirish jarayoni uchun asoslar yaratiladi | 4. O'qituvchilik kasbining obro'si tushdi, ish yuki oshdi, ba'zan jismoniy bajarish imkonsiz, o'qituvchilar uchun ijtimoiy yordam yo'q |
| 5. Yangi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza shakllanadi | 5. O'qituvchilarni uslubiy adabiyotlar yaratish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga rag'batlantirish yo'q |
| 6. Yangi davlat oliy ta'lim standartlari ishlab chiqiladi va joriy qilinadi | 6. Xususiy OTMlarda ko'p hollarda mamlakatning amaldagi mehnat qonunchiligi buziladi |
| 7. Ko'p pog'onali ta'lim tizimiga o'tish uchun asoslar shakllantiriladi | |

⁶Муаллиф ишланмаси.

HUDUDLARNING IJTIMOY-IQTISODIY HOLATI

| IMKONIYATLAR | XAVFLAR |
|---|--|
| 1. Tijorat ta'limining roli o'sadi | 1. Ta'lim sifatining ortishiga ehtiyoj OTMlarga byurokratik bosimni, o'quv jarayoniga rasmiy munosabatni kuchaytiradi |
| 2. Uzluksiz ta'limning bosqichma-bosqich tizimi joriy qilinmoqda | 2. Xususiy OTMlarda mehnat yuklamasi va ularni iqtisodiy rag'batlantirish ustidan nazorat yo'qligi ular bu muassasalarda mehnat o'qitish sifatini oshirish tomon o'zgartirish imkoniyatlarini pasaytiradi, mamlakatda o'qituvchilar resursi taqchilligini oshiradi, o'qituvchilik kasbining nufuzini pasaytiradi |
| 3. Ta'limni boshqarish markazi OTM kafedralariga o'tadi | 3. Maktablarda bitiruv testlari maromiga yetkazilmaganligi mamlakatda oliy ta'lim xizmatlariga talab yetishmasligini keltirib chiqaradi, pullik ta'lim xizmatlari bozorini buzadi va kelajakda oliy ma'lumotli mutaxassislar yetishmasligiga olib keladi |
| 4. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini faollashtirishning ilg'or shakllari rivojlanmoqda | 4. Pullik ta'lim xizmatlari bozori faoliyat ko'rsatish tizimining ko'plab masalalarini hal qilishda rasmiyatchilik ushbu bozorni buzadi |
| 5. O'qituvchilarni iqtisodiy va ijtimoiy rag'batlantirishni takomillashtirish OTMlarda o'quv, uslubiy va ilmiy jarayon sifati yaxshilanishiga olib keladi | 5. O'qituvchilarning ilmiy faoliyati va ta'lim jarayonining uslubiy asoslarini yaratishni iqtisodiy va ijtimoiy rag'batlantirish yo'qligi vaqt o'tishi bilan mualliflik huquqiga ega bo'lgan milliy ishlanmalari yetishmasligi va ta'lim sifati keskin pasayishiga, mamlakat oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajali xodimlari yetishmasligiga olib kelishi mumkin |
| 6. OTMlar marketing harakatlarini yaxshilash kelajakda ularni rivojlantirishning yanada istiqbolli strategiyalarini ishlab chiqish uchun asos beradi | 6. Kompyuterlashtirish sifatli testlar talab qiladi. Biroq mamlakatda maxsus testlarning aksariyati past sifatli, noto'g'ri tuzilgan, ba'zida esa xato va juda murakkab bo'lib, baholash obyektiv emasligini oshiradi |
| 7. Qonunchilik bazasining yaxshilanishi turli nizolar yuzaga kelish ehtimolini pasaytiradi | 1. Ta'lim sifatining ortishiga ehtiyoj OTMlarga byurokratik bosimni, o'quv jarayoniga rasmiy munosabatni kuchaytiradi |

Ko'rsatilgan va boshqa muammolarni Buxoro va Navoiy viloyatlari boshqarmalarining kuchli va zaif tomonlarini, istiqbolda pullik ta'lim xizmatlari rivojlanishining imkoniyatlari va xavflarini SWOT-tahlil shaklida tizimlashtirish, xususiy va davlat ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini oshirish usullarini izlab topishga asoslangan oliy ta'lim muassasalari pullik ta'lim xizmatlari bozori faoliyat yuritish vositalarini rivojlantirish va mehnat jamoalarini boshqarish tizimlarini yanada yaxshilash usullari bo'yicha mualliflik takliflari va tavsiyalari ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston iqtisodiy ta'lim tizimining oliy ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari jahon bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvida zaruriy shart ularning sifatini baholash bo'yicha umumiy standartlarni shakllantirishdir.

Shaxsga (iste'molchiga) nisbatan OTMlar ta'lim xizmatlari sifati kompleksli tushunchasi uslubiy tarkiblangan bo'lib, unda erishilgan intellektual daraja, kasbiy bilimlar, umumiy ta'lim va madaniy daraja, chiqishimlilik, axloqiy darajalar uning xususiyatlaridagi asosiy tarkibiy qismlar hisoblanadi. Tadqiqotda "Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari sifati" tushunchasi alohida tarkibiy qismni tarkiblash nuqtai nazaridan aniqlashtirildi: professor-o'qituvchilar tarkibi, ta'lim dasturlari, ta'lim jarayoni usullari va texnologiyalari, moddiy-texnik, o'quv va ilmiy baza, axborot ta'minoti, o'qishga qabul qilingan talabalar tarkibi, tarbiyaviy ishlar va ular o'rtasida o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirish. Bunda ta'lim sifatining muhim ta'minlovchi sharti bu xo'jalik majmuasining tarkibi va sifatini, axborot va madaniy salohiyatini, demografik xususiyatlarini belgilaydigan atrofdagi ijtimoiy muhit hisoblanishi e'tiborda tutildi.

Akkreditasiya mexanizmlari faoliyatidagi asosiy muammolar ishonch yetishmasligi, ommaviy iste'molchilar darajasida iqtisodiy madaniyat juda past darajada rivojlanganligi, yaxshi tashkil etilgan axborot kanallari yetishmasligi, ma'lumotlar narxi haddan tashqari oshirib yuborilganligi, ortiqcha xarajatlar yukining xaridorlarga o'tkazilishi o'lchovlar ko'lamidan tejash yo'qligi kabi muammolar hisoblanadi.

Hozirgi sharoitlarda oliy ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari bozorida raqobat pozitsiyalarining barqarorligi uning mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda qo'shimcha vakolatlarni faol rivojlantirish qobiliyati nafaqat bitiruvchining asosiy vakolatlarini qo'llab-quvvatlashi, balki barcha bitiruvchilar va talabalarning ishonchli va uzoq muddatli innovasionligi va moslashuvchanligini ta'minlash maqsadidaham tayaniladi bunda mazkur bozor bilan ham belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, ta'lim standartlariga (sifat standartlariga) tegishli har qanday huquqiy va konseptual nuqtai nazardan, oxir-oqibat, ular OTMning o'zi, uni joylashtirish (o'qitish yoki tadqiqotlarga, mahalliy, mintaqaviy, milliy yoki xalqaro bozorga, u yoki bu sifat darajasiga yo'naltirilgan elita, o'rtacha, qoldiq, xarajatli OTM) proektsiyasi bo'lishi lozim. Har bir oliy ta'lim muassasasida ushbu tushunchaning tor va keng ma'nodagi sifat madaniyati shakllantirilishi kerak.

Autsorsing, franchayzing va umuman, ta'lim tadbirkorligi O'zbekiston iqtisodiy ta'limi xalqaro raqobatdoshligini ta'minlashning muhim texnologiyalari hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim outsorsingi modelining nomuvofiqligi shundan iboratki, bir tomondan, professional ta'lim xizmatlarini

yetkazib beruvchilarning institusional inersiyasi amal qiladi, boshqa tomondan, O'zbekiston ta'limining an'analari va afzalliklaridan voz kechmasdan, ta'lim jarayoniga postindustrial axborot jamiyati talablariga javob beradigan yangi ustuvorliklarni kiritishga imkon beradigan yaxlit konsepsiya mavjud emas. Bu esa shunga olib keldiki, O'zbekiston oliy maktabining ta'lim xizmatlari bozorida bozor talabi signallariga ta'sirchanligi yo'qoldi.

Iqtisodiy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim outsorsingidan foydalanish bozor doirasi OTMlarning ta'lim xizmatlari bozorida raqobatdagi ustunlikni yo'qotish xavfi, shuningdek, xo'jalik yuritishning noaniq va dinamik bozor sharoitlarida uni samarali boshqarish va bashorat qilishni ta'minlash bo'yicha xarajatlar hajmi va darajasi bilan belgilanadi.

Ta'limda franchayzing tizimi rivojlanishining o'ziga xosliklari shunda namoyon bo'ladiki, institusional jihatdan savdo markalari franchayzingi va alohida huquqlar rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ta'lim tadbirkorligini rivojlantirish OTMlar ta'lim xizmatlarini yetkazib beruvchilarning raqobatbardosh shakllarini shakllantiradi, raqobatbardosh hamkor tanlash, ta'lim xizmatlari sifatiga bozor bahosini berish asosida ta'lim bozori sub'ektlari o'rtasida moliyaviy, moddiy, kadrlar va intellektual resurslarning "oqib o'tishi" bilan bog'liq moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Ta'lim xizmatlarini taqdim etishni mintaqaviy va mahalliy darajadagi universitetlarga muntazam ravishda o'tkazish bo'yicha bozor dialektikasi ta'limning ijtimoiy ne'mat sifatida obyektiv va qayta taqsimlanadigan xarakteriga asoslanadi.

Xorijiy davlatlar OTMlarining rivojlanishiga va malakali mutaxassislar tayyorlashga ko'mak berayotgan ilg'or strategiyalarni aniqlash natijalaridan kelib chiqib, quyidagilarni mamlakatimiz OTMlari faoliyatini takomillashtirishda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz: OTMlariga moliyaviy mustaqillik berilishi ularni strategik rejalar tuzishda mas'uliyat bilan yondashish zurrur bo'ladi; OTMlari faoliyatini rivojlantirishda, moliyaviy asoslarini diversifikatsiya qilishda, raqobatbardoshligini oshirishda tashqi manfaatdor tomonlarni, yirik ishlab chiqaruvchi (yoki ish beruvchi) korxonalarining vakillarini OTMlari boshqaruviga kiritish; OTMlarini innovatsion tadbirkorlik maqomiga olib chiquvchi strategik yo'nalishlarni belgilab olish; bitiruvchi kelajakda yirik ish beruvchi, moliyalashtiruvchi homiy va hamkorligini inobatga olib, ularni "innovator-tadbirkor" sifat belgisi ostida tarbiyalash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 19-may "*Ta'lim to'g'risida*"gi O'RQ-637-son Qonuni. <http://www.lex.uz>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar "2022-2023-yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida"gi PF-60-son Farmoni. <http://www.lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son Farmoni. <http://www.lex.uz>
5. M.E.Xallokova, R.F.Botirova. Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish jarayonining samaradorlik darajasi. Science and innovation. №3. – 2022. – 604-606 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-may "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5421233>
7. J.Huisman, A.Pausits. Higher Education management and development. Compendium for managers. Waxmann Verlag. – 2010. – P. 16-18.
8. O.C.Kaxhorov. Формирование резерва современных руководящих кадров в системе образования. Наука и Мир. – 2017. – С. 28-31.
9. X.Umarova. Актуальные проблемы применения обеспечительных мер в арбитражном процессе. Сборник статей по материалам Международной научно-практической конференции. – 2018. Санкт-Петербург. – С. 213-215.
10. G.M.Axmadxujaeva, D.Ganiyeva. Talim-tarbiya va shaxsning rivojlanish. Shaxs va uning rivojlanishi. Scientific progress. – 2021. – B. 68-71.
11. A.M.Murodov. Integratsiya sharoitida oliy ta'lim xizmatlari bozori rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari. Republication Scientific and Practical Conference. – 2022. – B. 789-781.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. <https://www.stat.uz>
13. N.R.Aliyev. Ta'lim xizmatlari marketingining o'ziga xos xususiyatlari. Scientific progress. – 2022. – B. 267-269.
14. O.A. Aripov. Inson kapitalini rivojlanishiga doir mulohazalar. International scientific journal volume 1. Issue 3. Interpretation and researches. – 2020. – B. 13-15.
15. www.parliament.gov.uz
16. www.press-service.uz
17. www.opendozweb.org